


**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI**  
*(2022- yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma`lumot)*

Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2022- yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 507,6 mln.AQSh dollarini tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 121,5 % ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI**  
*(yanvar-may, mln.AQSh dollari)*

*Ma`lumot uchun: Namangan viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.*

TSA da eksport hajmi 220,6 mln.AQSh dollariga (28,0 % ga ko'paydi) va import hajmi 287,0 mln.AQSh dollariga (16,9 % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida – 66,4 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**NAMANGAN VILOYAT  
BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR  
(2022- yil yanvar-may, mln.AQSh dollari, ulushi, % da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	145,6	22,5	123,1	28,7
Rossiya Federatsiyasi	143,3	98,9	44,4	28,2
Turkiya	42,1	23,6	18,6	8,3
Qozog'iston	38,2	14,1	24,2	7,5
Qirg'iziston	36,8	31,5	5,3	7,3
Germaniya	12,2	3,2	8,9	2,4
Koreya Respublikasi	8,4	0,9	7,5	1,7
Litva	8,0	0,2	7,7	1,6
Polsha	7,7	4,2	3,5	1,5
Belarus	7,6	0,8	6,8	1,5

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Namangan viloyati, jahonning 67 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (28,7 %), Rossiya Federatsiyasida (28,2 %), Turkiyada (8,3 %), Qozog'istonda (7,5 %), Qirg'iz Respublikasida (7,3 %), Germaniya (2,4 %) va Koreya Respublikasida (1,7 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iziston va Qozg'iston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Rossiya, Xitoy, Germaniya, Turkiya va Hindiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan ikta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Xitoy Xalq Respublikasi (145,6 mln.AQSh.dollari), Rossiya Federatsiyasi (143,3 mln.AQSh.dollari), shular jumlasidandir. Qolgan 18 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**NAMANGAN VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN  
TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, ming.AQSh.dollari)**

Davlatlar	2020- y.	2021- y.	2022- y.
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>73632,7</b>	<b>109949,4</b>	<b>145576,1</b>
Eksport	13297,0	26359,1	22464,1
Import	60335,7	83590,3	123112,1
Saldo	-47038,7	-57231,2	-100648,0
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>80627,9</b>	<b>117099,5</b>	<b>143307,1</b>
Eksport	48786,8	77398,6	98882,8
Import	31841,1	39700,9	44424,3
Saldo	16945,7	37697,7	54458,4
<b>Turkiya</b>	<b>16018,3</b>	<b>41811,7</b>	<b>42122,6</b>
Eksport	4472,9	10838,1	23562,9
Import	11545,4	30973,6	18559,7
Saldo	-7072,6	-20135,5	5003,3
<b>Qozog'iston</b>	<b>35487,6</b>	<b>47434,8</b>	<b>38210,3</b>
Eksport	18208,5	15348,6	14051,3



Import	17279,1	32086,2	24159,0
Saldo	929,4	-16737,6	-10107,7
<b>Qirg'iziston Respublikasi</b>	<b>34151,9</b>	<b>22734,5</b>	<b>36845,8</b>
Eksport	32127,9	20391,1	31496,0
Import	2024,0	2343,4	5349,8
Saldo	30103,8	18047,7	26146,3
<b>Germaniya</b>	<b>7605,4</b>	<b>4765,1</b>	<b>12161,6</b>
Eksport	1177,8	644,1	3248,4
Import	6427,6	4121,0	8913,2
Saldo	-5249,8	-3476,9	-5664,7
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>7185,6</b>	<b>4054,6</b>	<b>8392,1</b>
Eksport	154,4	87,1	888,5
Import	7031,1	3967,4	7503,7
Saldo	-6876,7	-3880,3	-6615,2
<b>Litva</b>	<b>1121,7</b>	<b>1193,9</b>	<b>7958,6</b>
Eksport	19,8	254,5	246,8
Import	1101,9	939,4	7711,8
Saldo	-1082,0	-684,8	-7465,0
<b>Polsha</b>	<b>3173,9</b>	<b>5971,8</b>	<b>7676,5</b>
Eksport	2520,9	3592,1	4161,4
Import	653,0	2379,7	3515,2
Saldo	1867,9	1212,4	646,2
<b>Belarus</b>	<b>1287,9</b>	<b>4274,3</b>	<b>7593,0</b>
Eksport	1055,9	1112,3	842,1
Import	232,0	3162,0	6750,9
Saldo	824,0	-2049,7	-5908,8
<b>Turkmaniston</b>	<b>2543,3</b>	<b>4468,5</b>	<b>7488,2</b>
Eksport	1362,5	953,0	2547,6
Import	1180,8	3515,5	4940,6
Saldo	181,7	-2562,5	-2392,9
<b>Ukraina</b>	<b>3774,4</b>	<b>6039,5</b>	<b>6564,1</b>

Eksport	3159,5	3516,1	3097,4
Import	614,9	2523,4	3466,8
Saldo	2544,6	992,7	-369,4
<b>Hindiston</b>	<b>2546,2</b>	<b>9173,0</b>	<b>4960,6</b>
Eksport	226,8	655,3	270,6
Import	2319,5	8517,7	4690,0
Saldo	-2092,7	-7862,4	-4419,4
<b>Fransiya</b>	<b>1326,0</b>	<b>3869,7</b>	<b>4013,3</b>
Eksport	-	-	-
Import	1326,0	3869,7	4013,3
Saldo	-1326,0	-3869,7	-4013,3
<b>Tojikiston</b>	<b>2469,9</b>	<b>2076,1</b>	<b>3712,1</b>
Eksport	2151,1	1476,2	1591,7
Import	318,8	599,9	2120,4
Saldo	1832,3	876,3	-528,7
<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>1182,4</b>	<b>1789,0</b>	<b>3430,4</b>
Eksport	214,6	-	1082,8
Import	967,9	1789,0	2347,6
Saldo	-753,3	-1789,0	-1264,8
<b>Italiya</b>	<b>2626,9</b>	<b>2566,8</b>	<b>2866,5</b>
Eksport	617,7	593,7	960,6
Import	2009,2	1973,2	1905,9
Saldo	-1391,5	-1379,5	-945,4
<b>Latviya</b>	<b>443,0</b>	<b>735,3</b>	<b>2393,7</b>
Eksport	1,8	39,1	235,6
Import	441,2	696,2	2158,1
Saldo	-439,3	-657,1	-1922,5
<b>Malayziya</b>	<b>4012,7</b>	<b>3147,6</b>	<b>2211,1</b>
Eksport	-	-	-
Import	4012,7	3147,6	2211,1
Saldo	-4012,7	-3147,6	-2211,1

<b>Azerbaydjon</b>	<b>334,8</b>	<b>289,0</b>	<b>1624,8</b>
Eksport	334,8	289,0	1101,5
Import	-	-	523,3
Saldo	334,8	289,0	578,2

Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yil yanvar-may oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 48,6 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2021- yilga nisbatan ulushi 0,5 % ga kamaygan.

**NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA  
MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI  
(yanvar-may % va ulushi )**




Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2022- yil yanvar-may oylarida 2021- yilning shu davriga nisbatan ko'paydi (0,5 % ga) va jami TSA dagi ulushi 51,4 % ni tashkil etdi.

## NAMANGAN VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-may)

Joriy yilning yanvar-may oylarida viloyatning eksportyorlar soni 355 tani tashkil etib, ular tomonidan 220,6 mln.AQSh.dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2021- yilning mos davriga nisbatan 28,0 % ga ko'paydi tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 98,0 % ni tashkil etib, ular Sanoat tovarlari (58,5 %), Xar-xil tayyor mahsulotlar (22,1 %) va Oziq ovqat mahsulotlari (12,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**EKSPORT TARKIBI**  
(2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-may)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami eksport</b>	<b>220,6</b>	<b>154,5</b>	<b>66,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	28,3	17,2	11,1	12,8	11,2	16,8
Ichimliklar va tamaki	0,5	0,5	-	0,2	0,3	-
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	3,0	0,9	2,0	1,3	0,6	3,1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,9	0,9	-	0,4	0,6	-
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,002	0,002	-	-	-	-
Ishlab chiqarilgan mahsulotlar	3,4	3,2	0,2	1,6	2,1	0,3
Mashina va transport uskunolari	129,1	82,4	46,7	58,5	53,4	70,6
Har xil tayyor mahsulotlar	2,3	2,3	-	1,0	1,5	-
Xizmatlar	48,7	45,0	3,7	22,1	29,2	5,6

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport



hajmi bo'yicha asosan yengil sanoat tovarlari, qora va rangli metallar, mashina va asbob-uskunalar va kimyo mahsulotlariga to'g'ri kelmoqda.

**MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR  
VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI**  
(yanvar-may, % va ulushi,)




2022- yilning yanvar-may oyi yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining 44,8 %), Qirg'iz Respublikasi (14,3 %), Turkiya (10,7 %), Xitoy Xalq Respublikasi (10,2 %), Qozog'iston (6,4 %), Polsha (1,9 %) va Germaniya (1,5 %) davlatlari

saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 89,7 foizni tashkil etmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqda.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2021- yining mos davriga nisbatan 43 davlatdan 46 davlatga ko'paydi.

**NAMANGAN VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI  
(2022- yil yanvar-may, % da)**



**TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTIDAGI YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar-may)**

Davlatlar	Ming.AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.	2021- y.	2022- y.
Rossiya Federatsiyasi	77398,6	98882,8	158,6	127,8	1	1
Qirg'iz Respublikasi	20391,1	31496,0	63,5	154,5	3	2
Turkiya	10838,1	23562,9	242,3	217,4	5	3
Xitoy Xalq Respublikasi	26359,1	22464,1	198,2	85,2	2	4
Qozog'iston	15348,6	14051,3	84,3	91,5	4	5
Polsha	3592,1	4161,4	142,5	115,8	6	6
Germaniya	644,1	3248,4	54,7	504,4	14	7
Ukraina	3516,1	3097,4	111,3	88,1	7	8
Turkmaniston	953,0	2547,6	69,9	267,3	12	9
Tojikiston	1476,2	1591,7	68,6	107,8	10	10
Afg'oniston	1744,6	1356,6	153,9	77,8	9	11
Azerbadjon	289,0	1101,5	86,3	381,1	17	12
Eron	-	1082,8	-	100,0	20	13
Portugaliya	1883,8	989,4	234,0	52,5	8	14
Italiya	593,7	960,6	96,1	161,8	15	15
Koreya Respublikasi	87,1	888,5	56,4	1019,7	18	16
Belgiya Gruzuya	372,2	860,2	2618,2	231,1	16	17
Belarus	1112,3	842,1	105,3	75,7	11	18
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	23,7	753,8	6,9	3179,4	19	19
Moldova	939,4	652,1	163,4	69,4	13	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, sanoat tovarlari va turli xil tayyor buyumlar kiradi.

Xizmatlar eksporti hajmi 4415,0 ming.AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,0 % ini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,5 % ga ko'payganligi kuzatildi.

#### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 129,1 mln.AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 58,5 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 135,8 % ga o'sdi.


Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlari natijasida, viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati oshib bormoqda.

## NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-may)

2022- yil yanvar-may oyida import hajmi 287,0 mln.AQSh dollarini va 2021- yilning mos davriga nisbatan 116,9 % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulushi, mashinalar va transport asbob-uskunalari (36,9 %), Sanoat mahsulotlari (21,5 %) hisobiga to'g'ri keldi.

**IMPORT TARKIBI**  
(2022- yil yanvar-may, ulushi, % da)



- Oziq-ovqat va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar
- Sanoat mahsulotlari
- Mashina va transport uskunalari
- Har xil tayyor mahsulotlar

Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2022- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 41,4 mln.AQSh dollariga ko'paydi va 287,0 mln.AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,8 ming.AQSh dollariga yetdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORT TARKIBI  
(2022- yil yanvar-may)**



XSST tarkibi	Mln.AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>227,0</b>	<b>71,3</b>	<b>155,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat va tirik hayvonlar	39,2	28,7	10,5	13,6	31,1	5,4
Ichimliklar va tamaki	14,5	11,3	3,2	5,0	12,3	1,6
Oziq-ovqat bo'lmagan xom ashyo, yoqilg'idan tashqari	11,1	10,8	0,3	3,9	11,8	0,1
Mineral yoqilg'i, moylash moylari va shunga o'xshash materiallar	10,1	7,7	2,5	3,5	8,3	1,3
Kimyoviy moddalar va shunga o'xshash mahsulotlar	36,8	8,4	28,3	12,8	9,2	14,5
Sanoat mahsulotlari	61,6	16,9	44,7	21,5	18,4	22,9
Mashina va transport uskunalari	105,8	6,7	99,2	36,9	7,2	50,9
Har xil tayyor mahsulotlar	8,0	1,6	6,4	2,8	1,7	3,3
Xizmatlar	-	-	-	-	-	-

Importning eng katta ulushi, jumladan, Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar mahsulotlar (31,1 %) Sanoat mahsulotlari (18,4 %) ni MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush Mashina va transport uskunalari (50,9 %), Sanoat mahsulotlari (22,9 %) va hissasiga to'g'ri keladi.

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki,

2021- yilning mos davriga nisbatan Mashina va asbob-uskunalar 20,8 % ga, kimyo mahsulotlari va buyimlari importining ulushi 20,9 % ga va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 16,5 % ga oshdi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR  
VA XIZMATLAR IMPORTI  
(yanvar-may, % va ulushi)**



Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlat-lar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 42,9 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini 14,8 % ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egalladi.


**TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTIDAGI YIGIRMATA YIRIK HAMKOR DAVLATLAR  
(yanvar-may)**

Davlatlar	Ming. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.	2021- y.	2022-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	83590,3	123112,1	138,5	147,3	1	1
Rossiya Federatsiyasi	39700,9	44424,3	124,7	111,9	2	2
Qozog'iston	32086,2	24159,0	185,7	75,3	3	3
Turkiya	30973,6	18559,7	268,3	59,9	4	4
Germaniya	4121,0	8913,2	64,1	216,3	6	5
Litva	939,4	7711,8	85,3	821,0	18	6
Koreya Respublikasi	3967,4	7503,7	56,4	189,1	7	7
Belarusiya	3162,0	6750,9	1363,1	213,5	10	8
Qirg'iz Respublikasi	2343,4	5349,8	115,8	228,3	14	9
Turkmaniston	3515,5	4940,6	297,7	140,5	9	10
Hindiston	8517,7	4690,0	367,2	55,1	5	11
Fransiya	3869,7	4013,3	291,8	103,7	8	12
Polsha	2379,7	3515,2	364,4	147,7	13	13
Ukraina	2523,4	3466,8	410,4	137,4	12	14
Eron	1789,0	2347,6	184,8	131,2	16	15
Malaziya	3147,6	2211,1	78,4	70,2	11	16
Latviya	696,2	2158,1	157,8	310,0	19	17
Tojikiston	599,9	2120,4	188,2	353,5	20	18
Italiya	1973,2	1905,9	98,2	96,6	15	19
Shveysariya	1162,6	1586,2	12,0	136,4	17	20

2021- yining mos davriga nisbatan 56 davlatdan 59 davlatga ko`paydi.



**NAMANGAN VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI**  
(2022- yil yanvar-may % da)



Olti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Litva va Germaniya) jami importning 79,0 % ini tashkil qiladi, bu 226 880,1 ming.AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Rossiya, Qozog'iston, Turkiya va Litva tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi**  
Tel.:(69)-211-72-00